



SUG'URTA SHARTNOMASI BO'YICHA XIZMAT KO'RSATISH MARJASI VA UNDA QAYTA SUG'URTANING ULUSHINI HISOBGA OLISH

Kodirkulov Oybek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Xalq sug'urta" aksiyadorlik jamiyati
ORCID: 0009-0001-6645-5919
oybekrd@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi va unda qayta sug'urtaning ulushini hisobga olish masalalari bayon qilingan. Xususan, buxgalteriya hisobi maqsadlarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq sug'urta zaxiralari, o'z navbatida sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi tasniflangan, tegishli ishchi schyotlarda hisobga olish tartibi yoritib berilgan va shu asosda algoritm ishlab chiqilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta zaxirasi, shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi, moliyaviy risklar bo'yicha zaxiralar, baxtsiz hodisalar bo'yicha zaxiralar, turli xil javobgarliklar bo'yicha zaxiralar, hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralar, sug'urta shartnomasi.

УЧЕТ МАРЖИ ЗА ОКАЗАНИЕ УСЛУГ ПО ДОГОВОРУ СТРАХОВАНИЯ И ДОЛИ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ В НЕЙ

Кодиркулов Ойбек

Ташкентский государственный экономический университет,
Акционерное общество «Xalq sugurta»

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы учета маржи за услуги по договору и доли перестрахования в ней в страховых организациях. В частности, в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности классифицируются страховые резервы, следовательно, и маржа за услуги по договору страхования, для целей бухгалтерского учета, разъясняется порядок учета в соответствующих рабочих счетах, на этой основе разработан алгоритм и сделаны выводы.

Ключевые слова: страховой резерв, маржа по договорным услугам, резервы на финансовые риски, резервы на несчастные случаи, резервы на прочие обязательства, резервы по страхованию жизни, договор страхования.

ACCOUNTING FOR THE SERVICE MARGIN UNDER AN INSURANCE CONTRACT AND THE SHARE OF REINSURANCE IN IT

Kodirkulov Oybek

*Tashkent State University of Economics,
"Xalq sugurta" Joint Stock Company*

Abstract. *This article describes the issues of accounting for the service margin under the contract and the share of reinsurance in it in insurance organizations. In particular, for accounting purposes, insurance reserves, and in turn, the service margin under the insurance contract, are classified in accordance with international financial reporting standards, the accounting procedure in the relevant working accounts is explained, and on this basis, an algorithm is developed, and conclusions are drawn.*

Keywords: *insurance reserve, contractual service margin, financial risk reserves, accident reserves, miscellaneous liability reserves, life insurance reserves, insurance contract.*

Kirish.

O'zbekiston sug'urta bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar sug'urta zaxiralari hisobining ilmiy asoslangan, shaffof va xalqaro talablarga mos mexanizmlarini joriy etishni talab etmoqda. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda sug'urta zaxiralarini hisoblash, tan olish, buxgalteriya hisobida hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi belgilangan bo'lsada, sug'urta bozoridagi risklar ko'lamining ortishi, sug'urta mahsulotlarining diversifikatsiyasi va sug'urta sohasida raqobatning ko'chayishi sug'urta tashkilotlarida sug'urta zaxiralarini tan olish, buxgalteriya hisobida hisobga olish va ular to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotda yoritib berishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zaruratini yanada oshirmoqda. Chunki, sug'urta zaxiralari hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, bir tomondan, sug'urta tashkilotlari barqarorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, sug'urta bozoridagi institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va moliyaviy hisobot axborotlarining shaffofligi, ishonchliligi va ahamiyatligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan sug'urta faoliyatida aktivlar, xususiy kapital, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, foyda va zararlarni buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish tartibini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Vazov, Hristozov (2025) tomonidan "Insurance through innovation: trends, benefits, and regulatory challenges: a european perspective" nomli maqolasida sug'urta shartnomalarini baholash hamda foyda va zararlarni boshqarishda 17-son "Sug'urta shartnomalari" MHXSni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular asosan sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish nuqtayi nazaridan oldingi 4-son MHXS bilan yangidan ko'chga kirgan 17-son MHXS o'rtasidagi farqlarni qiyosiy va tahliliy yondashuvlar asosida yoritib beradi.

Zaxarova va Kamiysovskayalar (2014) tomonidan sug'urta zaxiralari bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida ular shakllantirilgan paytda va ulardan foydalanilganda, shu bilan birga, qayta sug'urtalovchilar ulushining mavjudligini inobatga olgan holda aks ettirish uchun yordamchi subschyotlar taklif etgan holda buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun sug'urta zaxiralari klassifikatsiyasini taklif etadi.

Ochilov (2022) tomonidan olib borgan tadqiqotlari natijasida: sug'urta shartnomalari bo'yicha asosiy faoliyat va sug'urtaga oid boshqa daromadlar tarkibi qayta shakllantirilgan; hisob siyosatida birlamchi hujjatlar hamda sintetik va analitik hisob registrlari o'rtasidagi axborotlar uzviy bog'lanishini ta'minlovchi tizimlashtirilgan shakl ishlab chiqilgan; xarajatlarni to'g'ri guruhlash va hisobda aks ettirish maqsadida "Sug'urta da'vo ishini yuritish xarajatlari",

“Umumiy sug’urta ishini yuritish xarajatlari” va “Hayot sug’urta ishini yuritish xarajatlari” nomli ishchi sintetik schyotlarni hisob siyosatiga kiritish taklif etilgan; sug’urta tashkilotlari daromad va xarajatlarini sug’urta hamda depozit komponentlariga ajratgan holda tan olish uslubiyotini joriy etish orqali MHXSga uyg’unlashtirish asoslangan.

Abdusalomova (2024) sug’urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini MHXS asosida takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borgan bo’lib, u asosan sug’urta tashkilotlarining MHXSga o’tish zarurati, buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi muammolar, 17-sonli MHXSni o’ziga xos xususiyatlari, sug’urta shartnomalarini hisobga olish qoidalarini yoritib bergan holda tadqiqot natijalari asosida o’z xulosalarini keltirib o’tadi.

Tadqiqod metodologiyasi.


Sug’urta zaxiralarini hisobga olish va ularning sug’urta tashkiloti moliyaviy holatiga ta’sirining tahlili tadqiq qilib o’rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to’plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo’yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig’ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma’lumki, sug’urta tashkilotlari MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlovchi tadbirkorlik subyektlari bo’lsada, amalda sug’urta zaxiralari «Sug’urtalovchilarning sug’urta zaxiralari to’g’risidagi Nizom»da belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq hisoblangan holda buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirmoqda. Vaholanki, sug’urta zaxiralari tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish bo’yicha minimal talablar 17-son MHXSda belgilangan. Ya’ni, sug’urta zaxiralarini buxgalteriya hisobida hisobga olish bo’yicha aniq tartib-qoidalarni belgilab bermaydi. Shu nuqtai-nazardan, sug’urta tashkiloti sug’urta zaxiralarini tan olish, baholash, buxgalteriya hisobida hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini 17-son MHXS doirasida hisob siyosatida belgilab olishi lozim.

Shuni ta’kidlab o’tish joizki, 17-sonli MHXSga ko’ra, sug’urta zaxiralarini shakllantirishda har bir sug’urta shartnomasining turi va xususiyatlari inobatga olinib, ular guruhlariga ajratilib hisoblanishi lozim. Demak, o’z navbatida sug’urta zaxiralari ham sug’urta hodisalari va ularning ehtimoliy oqibatlarini inobatga olingan holda shakllantirilishi lozim (1-rasm).

1-rasmda 17-sonli MHXSga muvofiq sug’urta zaxiralarining tasnifi keltirilgan bo’lib, unda ko’rsatilgan shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasi va unda qayta sug’urtaning ulushi to’g’risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun quyidagi sintetik schyotlardan foydalangan holda hisobga olishni taklif qilamiz (2-rasm):



1-rasm. 17-son «Sug’urta shartnomalari» MHXSga muvofiq sug’urta zaxiralarining tasniflanishi

Manba: muallif ishlanmasi.


8010 – “Shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasi” schyoti;

8110 – “Shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasida qayta sug’urtaning ulushi” schyoti.

Ushbu schyotlar bo’yicha analitik hisobni esa, sug’urta shartnomalari kesimida yuqorida keltirilgan tasnif asosida, ya’ni “Moliyaviy risklar bo’yicha zaxiralar”, “Baxtsiz hodisalar bo’yicha zaxiralar”, “Turli xil javobgarliklar bo’yicha zaxiralar” va “Hayot sug’urtasi bo’yicha zaxiralar” bo’yicha yuritish maqsadga muvofiq hisoblanadi (jadval).

Fikrimizcha, 8010 – “Shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasi” va 8110 – “Shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasida qayta sug’urtaning ulushi” schyotlari tarkibida alohida 1-jadvalda ko’rsatilgani kabi ishchi analitik schyotlarni ochgan holda sug’urta zaxiralarini hisobga olinishi, sug’urta tashkilotlari tomonidan sug’urtalanuvchilar bilan tuzilayotgan sug’urta shartnomalarning samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, sug’urta tashkilotlari tomonidan sug’urta javobgarliklarini kamaytirish maqsadida, sug’urta shartnomalari bo’yicha javobgarlikning bir qismini qayta sug’urtaga berish natijasida kamaytirishga erishiladi.

O’z navbatida, sug’urta shartnomasi bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasi kelgusi davrlarda daromad sifatida tan olinishini hisobga oladigan bo’lsak, bu sug’urta tashkilotining “Moliyaviy holat to’g’risidagi hisoboti”da kechiktirilgan daromad yoki umumiy holda majburiyat deb tan olinishi lozim.



2-rasm. Shartnoma bo’yicha xizmat ko’rsatish marjasi va unda qayta sug’urtaning ulushini hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, sug'urta tashkilotlari sug'urtalanuvchilar bilan tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha kelgusida sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida katta miqdorda sug'urta to'lovlari vujudga kelish risklarini kamaytirish maqsadida majburiyatlarning bir qismini boshqa sug'urta tashkiloti (qayta sug'urta)ga sotish yo'li bilan kamaytiradi. Bunday holatda, kelgusida sug'urta hodisasi yuz bersa, sug'urta tashkiloti sug'urtalanuvchiga to'liq sug'urta to'lovini qoplab berib, qayta sug'urtadan sug'urta to'lovidagi ulushini undirib oladi. Bundan ko'rinadiki, sug'urta tashkilotlari sug'urta shartnomalari bo'yicha javobgarlikni qayta sug'urtaga berish natijasida sug'urta tashkilotida aktivni paydo qiladi.

Bizningcha, sug'urta tashkiloti tomonidan qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha javobgarlikdagi ulushini aktiv sifatida tan olish to'g'ri yondashuv hisoblanmaydi. Chunki, sug'urta tashkiloti tomonidan qayta sug'urtaga berilgan shartnomalar bo'yicha aktivning paydo bo'lishi kelgusida sug'urta hodisasi sodir bo'ganda yuzaga keladi. Bu esa, MHXSning konseptual asosi (17-son MHXS) talablari bo'yicha qayta sug'urtaga berilgan sug'urta javobgarliklarini aktivning mavjud iqtisodiy resurs degan talabini bajarmaydi. Shu sababli, qayta sug'urtaga berilgan javobgarlik ulushini aktiv sifatida emas, balki sug'urta shartnomalari bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining sof qiymatini to'g'rilash elementi sifatida hisobga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida buxgalteriya hisobi maqsadlarida analitik guruhlar bo'yicha toifalangan holda tasniflangan sug'urta shartnomalariga doir xizmat ko'rsatish marjasi va unda qayta sug'urtaning ulushi bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobida jadvalda taklif etilgan ishchi schyotlardan foydalangan holda quyidagicha aks ettirilishi lozim:

1-jadval

Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi hamda unda qayta sug'urtaning ulushini hisobga olish uchun mo'ljallangan schyotlar va ularning tavsifi

Schyot raqami	Schyot nomi	Schyot raqami	Tavsifi
8010 – "Shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi" schyoti			
8011	Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi	P	Bu schyot kredit qatmaslik xatari natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatini hisobga oladi
8012	Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi	P	Ushbu schyotda baxtsiz hodisalar natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymati ko'rsatiladi
8013	Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi	P	Kasbiy va boshqa javobgarliklar natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymati hisobga olinadi
8014	Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi	P	Mazkur schyotda insonlarning hayotiga zarar yetishi natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatini hisobga oladi
8110 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasida qayta sug'urtaning ulushi" schyoti			
8111	Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	KP	Kredit qatmaslik xatari natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatida qayta sug'urtaning ulushi hisobga olinadi
8112	Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	KP	Ushbu schyotda baxtsiz hodisalar natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatida qayta sug'urtaning ulushi ko'rsatiladi
8113	Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	KP	Kasbiy va boshqa javobgarliklar natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatida qayta sug'urtaning ulushi hisobga olinadi
8114	Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi	KP	Mazkur schyotda insonlarning hayotiga zarar yetishi natijasida kutilayotgan to'lovlarning joriy qiymatida qayta sug'urtaning ulushi hisobga olinadi

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi” schyoti (8010) tarkibida ochilgan analitik schyotlar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobida quyidagi tarzda aks ettiriladi:

1. Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxiralarining davr boshiga nisbatan o'zgarishi quyidagicha hisobga olinadi:

a) Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 9231 – «Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi» schyoti;

Kredit 8011 – «Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi» schyoti.

b) Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 8011 – «Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi» schyoti;

Kredit 9231 – «Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi» schyoti.

2. Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxiralarining davr boshiga nisbatan o'zgarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 9232 – “Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti;

Kredit 8012 – “Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti.

b) Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 8012 – “Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti;

Kredit 9232 – “Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti.

3. Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxiralarining davr boshiga nisbatan o'zgarishi quyidagicha hisobga olinadi:

a) Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 9233 – “Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti;

Kredit 8013 – “Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti.

b) Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 8013 – “Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti;

Kredit 9233 – “Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti.

4. Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxiralarining davr boshiga nisbatan o'zgarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 9234 – “Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti;

Kredit 8014 – “Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti.

b) Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 8014 – “Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi” schyoti;

Kredit 9234 – “Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti.

“Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasida qayta sug'urtaning ulushi” schyoti (8110) tarkibida ochilgan analitik schyotlar bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari esa, buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1. Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi davr boshiga nisbatan o'zgarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

a) Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 8111 – “Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi” schyoti;

Kredit 9231 – “Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti.

b) Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 9231 – “Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi” schyoti;

Kredit 8111 – “Moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi”

schyoti.

2. Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan o'zgarishi quyidagicha hisobga olinadi:

a) Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 8112 – "Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi" schyoti;

Kredit 9232 – "Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti.

B) Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 9232 – "Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti;

Kredit 8112 – "Baxtsiz hodisalar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi" schyoti.

3. Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan o'zgarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

a) Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 8113 – «Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi» schyoti;

Kredit 9233 – "Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti.

b) Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 9233 – "Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti;

Kredit 8113 – «Turli xil javobgarliklar bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi» schyoti.

4. Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan o'zgarishi buxgalteriya hisobida quyidagicha hisobga olinadi:

a) Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan ko'payganda:

Debet 8114 – "Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi" schyoti;

Kredit 9234 – "Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti.

b) Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urta ulushining davr boshiga nisbatan kamayganda:

Debet 9234 – "Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasi o'zgarishi" schyoti;

Kredit 8114 – "Hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxirasida qayta sug'urtaning ulushi" schyoti.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi hamda unda qayta sug'urtaning ulushini hisobga olish maqsadida taklif etilgan analitik schyotlar bo'yicha ma'lumotlar, hisobot davri yakunida belgilangan tartibda 8010 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi" va 8110 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasida qayta sug'urtaning ulushi" schyotlarida umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Shuningdek, 9230 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining o'zgarishi" schyoti bo'yicha ochilgan analitik schyotlar ham hisobot davri oxirida ushbu schyotda jamlanadi. Mazkur schyotning yopilishi buxgalteriya hisobida tegishli buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi. Masalan, agar 9230 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining o'zgarishi" schyotining debet tomonida qoldiq shakllangan bo'lsa, u sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan daromad schyotining debet qismiga o'tkaziladi va ushbu operatsiya quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9030 – "Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar" schyoti;

Kredit 9230 – "Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining o'zgarishi" schyoti.

Agarda 9230 – “Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining o'zgarishi” schyoti bo'yicha kredit qoldiq mavjud bo'lsa, u sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromad schyotining kredit qismiga o'tkazilgan holda quyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9230 – “Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasining o'zgarishi” schyoti;

Kredit 9030 – “Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar” schyoti.

Yuqorida keltirilgan buxgalteriya o'tkazmalari natijasida sug'urta zaxiralarining barcha turlari bo'yicha yuzaga kelgan umumiy o'zgarishlar 9030 - “Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar” schyotida jamlanadi. Hisobot davri oxirida yakuniy moliyaviy natijalarni shakllantirish maqsadida mazkur schyot 9910 - “Yakuniy moliyaviy natijalar” schyoti bilan o'zaro bog'langan holda yopiladi.

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, sug'urta zaxiralari hisobining uslubiy jihatlarini takomillashtirish yo'nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalariga asosan sug'urta zaxiralari hisobini MHXS talablari asosida tashkil etish va ularni moliyaviy hisobotning alohida elementi sifatida aks ettirish maqsadida sug'urta zaxiralari “Shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi”, “Sodir bo'lgan hodisalar bo'yicha majburiyatlar”, “Risk bo'yicha tuzatish” hamda “Eng yaxshi taxmin bo'yicha javobgarlik” toifalariga ajratilgan holda tasniflandi.

buxgalteriya hisobi maqsadlarida sug'urta shartnomasi bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasini “Moliyaviy risklar bo'yicha zaxiralar”, “Baxtsiz hodisalar bo'yicha zaxiralar”, “Turli xil javobgarliklar bo'yicha zaxiralar” va “Hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralar” kabi toifalarga ajratgan holda hisobga olish taklif etildi. Shuningdek, shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi tarkibida qayta sug'urtaning ulushini hisobga olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish algoritmi ishlab chiqildi.

shartnoma bo'yicha xizmat ko'rsatish marjasi hamda unda qayta sug'urtaning ulushini hisobga olish uchun mo'ljallangan sintetik schyotlar tarkibida moliyaviy risklar, baxtsiz hodisalar, turli xil javobgarliklar va hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta zaxiralari to'g'risidagi axborotlarni to'liq va aniq aks ettirish maqsadida alohida analitik schyotlar taklif qilindi hamda ulardan foydalanish tartibi tasniflangan holda ilmiy jihatdan tavsiflab berildi.

Adabiyotlar/Litmeramypa/Reference:

Abdusalomova N.B (2024). Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali* 83-90 b.

Moliyaviy hisobot halqaro standartlarining konseptual asosi. Sug'urtalovchilar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 5-maydagi 47-son buyrug'i bilan tasdiqlangan. <https://lex.uz/docs/1357627>.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (17-son MHXS) “Sug'urta shartnomalari”. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-17-insurance-contracts>.

Ochilov I.K. (2022) Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlili metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. – T.: 2022. – 12 b.

Vazov R., Hristozov Z. Redef (2025) “Insurance through innovation: trends, benefits, and regulatory challenges: a european perspective”//Strategies for Policy in Science and Education. No. 33, p. 160-177.

Zaxarova Tatyana Vladimirovna, Kamysovskaja Svetlana Vasil'evna. (2014) “Управление резервами страховой организации в учетной бухгалтерской системе”//Современные технологии управления. №11 (47). <https://sovman.ru/article/4704>.